

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022

ISSN 2181-6833



9 772181 683301



Jo‘rabek YARASHEV, Xurshid AXROROV. Musiqa ta’limi o‘qitish metodikasini takomillashtirishda aktdan foydalanish imkoniyatlari (sibelius dasturi misolida).....	235
M. SAMIYEVA. “Buxoro ijrochilik uslubi” - o‘smir-o‘quvchilar axloqiy sifatlarini rivojlantirish omili sifatida.....	237
O‘. AVLIYOQULOV. Musiqa madaniyati ta’limida musiqiy savodxonlik faoliyatidan foydalanish imkoniyatlari	239
Davron RO‘ZIYEV, Shavkat QODIROV, Dilovar QODIROVA. Sharq allomalarining inson ma’naviyatida musiqaning o‘rni haqidagi qarashlari	241
Dilorom SAIDOVA, Davron RO‘ZIYEV. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy ko‘nikmalarini shakllantirish	244
I.M.RAXMANOVA, Davron RO‘ZIYEV. Musiqa ta’limida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.....	248
Munisa JO‘RAYEVA, Davron RO‘ZIYEV. O‘zbekistonda fortepiano ijrochiligi san’ati	251
Hojibuv RAHMONOVA, Sanoqul DO‘STOV. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri haqidagi sharq mutafakkirlarining fikrlari	254
Sitora XAMDAMOVA. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari	259
Islom AXTAMOV. Maktab musiqi madaniyati darslarida maqom namunalarini o‘rgatishni metodik takomillashtirish tajribalaridan	261
Ulug‘bek MIRSHAYEV, Dilara MIRSHAYEVA. Boshlangich sinf o‘quvchilarida musiqiy - ritmik harakatlarni shakllantirish	263
Dilshoda RUSTAMOVA, F.G. Nurullayev. Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqi tarbiyasi	265
Nasiba HAZRATOVA, F.G. Nurullayev. Musiqa darslari orqali o‘quvchi yoshlarning ongini va milliy tafakkurni o‘stirish omillari	268
Nodira NURULLAEVA, Sanoqul DO‘STOV. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda xalq qo‘shiqlarining ahamiyati va tutgan o‘rni	271
Nozima NURULLAYEVA. Yoshlarni tarbiyalashda musiqiy tasavvurlarning xususiyatlari.....	273
Nigora NURULLAYEVA. Buxoro folklor qo‘shiqlari xalqning ijodiy ma’suli sifatida	275
Boburshox NURULLAYEV, Sanoqul DO‘STOV. Folklor qo‘shiqlarini tanlab olishga qo‘yiladigan metodik talablar	278
Mehriniso NURULLAEVA. Yoshlarda milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiyaning ahamiyati	281
O‘ktam IBODOV. Musiqa darslarida o‘quvchilarni musiqaga bo‘lgan ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirish	283
Jo‘rabek YARASHEV, Dilnavoz MURATOVA. O‘rta umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning ovozini tarbiyalash va rivojlantirish usullari	286
Dinora UMARQULOVA, F.G NURULLAYEV. Buxoro shashmaqomi ustuni	289
Dinora UMARQULOVA, F.G NURULLAYEV. O‘zbek katta ashulasining jahon miqyosidagi o‘rni.....	292
Shuhrat G‘ULOMOV. Tarixiy janrda O‘zbekiston tasviriy san’ati rivoji	294
Farrux NURULLAYEV, Nodira NURULLAYEVA. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining uzluksiz ta’limdagi tutgan o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati.....	297

Dinora UMARQULOVA

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi I bosqich magistri
"Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti sohibasi

F.G NURULLAYEV.

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BUXORO SHASHMAQOMI USTUNI

Maqolada buyuk ustoz, maqomdon Domla Halim Ibodov haqida fikr yuritilgan. Xalqimizning nomoddiy madaniy merosi, o'tmishi, buguni va kelajagi, ma'naviy hayotga bo'lgan qiziqish va intilishlarini hamda tarbiyaviy ahamiyatini namoyon etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi haqida so'z borgan. Chunki xalq uchun, xalq milliy merosi, xalqning tarixiy ma'naviy qadriyatlarini uchun xizmat qilishga butun ongli hayotini bag'ishlagan ardoqli san'atkor har qanday tahsin va hurmatga loyiqdir.

Kalitso'zlar: shashmaqom, saraxbor, savt, sho'ba, mog'ulcha, mushkilot, buzruk, rost, navo, dugoh, segoh, iroq, avji turk, avji zebopari, ufor, namud, qashaqarcha, navo.

Аннотация: В статье рассматриваются роль великого музыковеда (Домлы Халима Ибадова), его несравненный вклад в истории шашмакома и музыкального наследия Бухары в том числе и узбекского музыкознания. Уникальность узбекской классической музыки заключается в том что это выдающийся памятник музыкальной культуры, значение которого выходит за рамки узкоэтических интересов, а её "классичность" для всех и навсегда.

Ключевые слова: музыка, маком, певец, жанр, классика, традиция, система, тембр, школа.

The article examines the role of the great musicologist (Domla Halim Ibodov), his incomparable contribution to the history of shashmakom and the musical heritage of Bukhara, including Uzbek musicology. The uniqueness of Uzbek classical music lies in the fact that it is an outstanding monument of musical culture, the significance of which goes beyond narrowly ethical interests, and its "classicality" is for everyone and forever.

Key words: music, makom, shashmaqom, saraxbor, savt, sho'ba, mog'ulcha, mushkilot, buzruk, rost, navo, dugoh, segoh, iroq, avji turk, avji zebopari, ufor, namud, qashaqarcha, singer, genre, classics, tradition, system, timbre, school.

Kirish. Ma'lumki, musiqiy merosimizning eng salobatli, eng sermahsul va eng ardoqli qismini maqom ijodiyoti tashkil etadi. O'tmishda Buxoro maqom ijrochiligi an'anasiga ko'ra maqomxon hofizlar, asosan, ikki yo'nalish bo'yicha o'z faoliyatlarini namoyish etganlar. Ular "Saraxbor" xonlik va "Savt" xonlikda mashhur bo'lganlar ana shunday "Savt" xon hofizlardan biri sehrli ovoz sohibi Domla Halim Ibodovdir.

Asosiy qism. Har bir san'akorning o'ziga xos ijro yo'li, ijro maktabi va dasturi bo'lganidek, Domla Halim Ibodovning ham o'z ijro uslubi mavjud edi. U ko'pincha Shashmaqom sho'balaridan Savt va Mo'g'ulchalarni o'ta ustalik bilan ijro etganligi uchun ham taniqli musiqa mutaxassisleri va shinavandalari orasida tengi yo'q "Savtxon" hofiz sifatida tanilib, "Domla Halimi Savtxon" nomini olgan edi.

Domla Halim Ibodov 1878-yilda Shashmaqom bilimdonlari vatani Buxoroda, to'quvchi kosib oilasida dunyoga kelgan. Otasining o'sha davr ilg'or fikrli kishilari, adabiyot va san'at ustalari bilan do'stligi bo'lib, turli yig'inlarda ishtirok etgan paytda o'g'lini ham o'zi bilan birga olib borar edi. Bu esa, o'z navbatida, yosh Halimjonda musiqa san'atiga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Domla Halimning otasi musiqani sevibgina qolmasdan, balki havaskor darajasida bo'lsa-da, ashula ham aytardi. Xonanda dastlabki musiqa sabog'ini o'z otasidan oladi.

Doira jo'rligida xalq ashulalarini ancha mahorat bilan ijro etib, tinglovchilarga manzur bo'lgan yosh Halimjon tezda ustoz san'atkorlar nazariga tushib qoladi. Ustoz Sharifjon Tanburiy Shashmaqomning nasr va mushkilot qismlaridan bir qator sho'balarni unga o'rgatadi.

Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlari xalqlarida bo'lganidek, Buxoroda ham atoqli san'atkorlar o'rtasida bir urf mavjud edi: har bir yetuk san'atkor xalq mumtoz ashulalarini ijro etish bilan birga musiqa san'atining murakkab janri bo'lmish Shashmaqomni ham chuqur bilishi va sho'balarini ijro etayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan murakkab usullarni doira jo'rligida aytish mahoratiga ega bo'lishi shart edi. Ana shu xususiyat iste'dodli Domla Halimda ham mavjud bo'lib, u o'zi aytgan barcha ashulalarga doirada o'zi jo'rnavozlik qilardi.

Dastlabki ustoz (Sharifjon Tanburiy) sabog'i va xalq ichidagi bir qator maqomxon xonandalar ta'siri ostida Domla Halim o'n to'qqiz yoshidayoq maqom sho'balari mahorat bilan ijro qilib, o'z muxlislarini maftun etadi va xalq orasida ancha tanilgan xonanda bo'lib yetishadi. Shundan so'ng u o'z san'atini Ota Jalol, Ota G'iyos, Hoji Abdurahmon, Qori Kamol, Qori Najm, Usta Ergash va Usta To'la kabi maqom bilimdonlariga namoyish etadi va ular yordamida maqomxonlik mahoratini yanada takomillashtiradi. Shashmaqomning "Buzruk", "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh" va "Iroq"dan iborat olti maqomi kabi bebaho xazinaning qariyb hamma sho'balari o'rganib oladi, ayniqsa "Qashqarchai Mo'g'ulchai Segoh", "Ufori Sarvinoz", "Iroqi Buxoro", "Mo'g'ulchai Dugoh", "Qashqarchai Ushshoq" kabi maqom sho'balarni ayricha mahorat bilan ijro etadi.

Odatda, Shashmaqom sho'balari va mumtoz ashulalar ijrosida hofizlar baland pardalarni olishda Numudi Dugoh, Namudi Segoh, Namudi Dunasr kabi namudlardan tashqari avji Turk, avji Zebopari, avji Muxayyar, avji Xuroson, avji Kashmiri singari baland pardalardan foydalanadilar. Bu avjlarning eng kuchlisi avji Turk va Zebopari bo'lib, ularning ijrosi xonandadan baland, diapazonni keng va shirali ovozni talab etadi. Bunday avjlari bo'lgan ashulalarni ijro etish dovudiy ovoz sohibi Domla Halimga nasib etgan edi. Ulkan ovozga ega bo'lgan Domla Halim Saraxbori Buzruk, Saraxbori Navo, Saraxbori Segoh, Iroqi Buxoro, Navro'zi Sabo, Savti Kalon, Savti Sabo, Buxoro to'liqini kabi qator ashulalarda Avji turk va Zebopari avjlaridan foydalanganiki, bu ijro tinglovchida juda katta va hayratomuz taassurot qoldirgan. Domla Halimning ovoz diapazoni va ijro mahorati haqida atoqli hofiz Levi Boboxonov quyidagilarni aytgandi: "Domla Halim orombaxsh ovozining hajmi shu darajada katta ediki, unga tanbur pardalari ham tob bera olmasdi, shu bois u, mumtoz ashulalar va maqomlarni katta mahorat bilan ijro etardi".

Nomdor hofizning ijodi 1920-yillardan so'ng ko'p qirrali faoliyatga aylandi. U Buxoroning Labi Hovuzi Devonbegisi qoshida o'tkaziladigan "Sharq kechasi" nomli madaniy-ma'rifiy kechalar, konsertlarda qatnashishdan tashqari Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan 1921-yilda Buxoroning Hovuzi Dasturxonchi mahallasida tashkil etilgan Sharq musiqa maktabida an'anaviy xalq musiqa ijrochiligi sinfi muallimi bo'lib ishlaydi. Bu musiqa dargohida Ota Jalol, Ota G'iyos, Mirza Narzulla, Hoji Abdurahmon, Turobqul Qorovulbegi, Ma'rufjon Toshpo'latov, Najmiddin Nasriddinov va boshqa atoqli maqomdon san'atkorlar iste'dodli yoshlarga Shashmaqom va maqom yo'lidagi xalq ashulalarini ijro etish sirlarini o'rgatadilar.

Hofiz 1928-yilda professor N.N.Mironov rahbarligida Samarqandda tashkil etilgan O'zbekiston musiqa va xoreografiya ilmiy-tekshirish oliygohida atoqli san'atkorlar V.A.Uspenskiy, Ota Jalol, Ota G'iyos, Hoji Abdurahmon va boshqalar bilan birga kelajakda o'zbek musiqa san'atining yirik namoyandalari bo'lib yetishgan M.Ashrafiy, M.Burxonov, D.Zokirov, T.Sodiqov, Sh.Ramazonov, O.Halimovlarga Shashmaqomning mushkilot va nasr qismlari ijro uslublaridan saboq beradi.

1932-yilda san'at xodimlarining respublika s'ezdi qatnashchilariga atalgan konsertga eng mashhur sozanda va xonandalar bilan birga ishtirok etgandan so'ng, u O'zbekiston Radiosi Davlat komitetiga ishga taklif etiladi va shu munosabat bilan Toshkentga ko'chib boradi. Bu yerda u musiqa tadqiqotchisi Yelena Romanovskaya bilan hamkorlik qilib, Rost maqomidan "Navro'zi Sabo", Buzruk maqomidan "Qashqarchai Sarvinoz", "Nasrulloi", Dugoh maqomidan "Mo'g'ulchai dugoh" kabi maqom sho'balari ohangrabo tasmasiga va plastinkaga yozdiradi. Taniqli musiqashunos olimi Y.Romanovskaya Domla Halim ovozining ta'sir kuchi va ijro uslubini quyidagicha ta'riflagan edi: "...U ashulani go'zal tembrli tovushda tiniq va erkin ijro etishdan tashqari qudratli nafasga ham ega edi va bir nafasda ashulaning juda murakkab avjlarini ustalik bilan ijro etar, shuningdek, tovushni uzoq cho'za olar edi. U tabiiy ovozga ega bo'lib, umrining oxirigacha ashulani xuddi yoshlardek osonlik bilan ijro etardi, ashula avjiga "yuz" marta chiqqanda ham uning yuzida ozgina bo'lsa-da kuchanishi ko'rmaysiz".

Darhaqiqat, Domla Halim juda noyob va sehrli ovoz sohibi edi. Uning ovozi musiqa tili bilan aytgandi. Tenor – altina bo'lib, juda yuqori pardalarda tiniq jaranglaydigan "ishkami" (tovushni ichkaridan – qorindan chiqarish uslubi) ovoz sirasiga kiradi. Ustozona ashula ijrochisining tadqiqotchisi Dovud Mullaqandovning aytishicha, "ishkami" ovoz o'z navbatida chuqur nafas olishga asoslangan bo'lib, butun diapazoni bo'yicha yengil, tiniq, jaranglab chiqadi, bunday tovush bilan har qanday hofiz ashula aytganda, apparatlarning rezonator bo'shliqlarida aks sado beradi va natijada hech qanday mikrofonizatsiya ovoz yaxshi, jarangdor yangraydi.

Domla Halim 1937-yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek adabiyoti va san'ati o'n kunligida sobiq SSSRning katta teatrida ashula aytganida zalda o'tirgan musiqa mutaxassislaridan biri hofizning mikrofonizatsiya ovoz juda baland chiqayotganligiga shubha qilib, sahnaga chiqadi va uni obdon tekshiradi, so'ngra xonanda ovozidan hayratda qolib, qayta pastga tushadi.

Muhokamalar va natijalar. Domla Halim Ibodovga xos mohirona ijro uslubi faqat o'zbek va tojik musiqa san'atkorlari va shinavandalari tomonidan emas, balki boshqa xalq zabardast ashula mutaxassislari va kompazitorlari tomonidan ham juda yuksak baholanadi. Xususan, Moskva va Leningrad

konservatoriyalarining vokal kafedrası professorlari A.Migay va boshqalarni uning baland ovozi va ijro uslubi qoyil qoldiradi.

Atoqli xalq ashulachisi Domla Halim faqatgina maqom va maqom yo'lidagi mumtoz ashulalarini aytib, ularni targ'ib qilish bilan shug'ullanmasdan, shogird tayyorlash borasida ham ancha zahmat chekdi. O'zbek va tojik san'atining zabardast namoyandalari Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov, Shohnazar Sohibov, Fazliddin Shahobov, Yoqub Dovidov, Borux Zirkiyev, Ma'rufjon Toshpo'latov, Najmiddin Nasriddinov, Gabriel va Nuriel Benyaminovlar, Ergash Shukrullayev va Ayub Qodirovlar kabi musiqa san'atimizning yirik arboblari Domla Halim Ibodov shogirdlaridir. Uning farzandi, O'zbekiston xalq artisti, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Berdaq mukofoti sovrindori, kompozitor Olimjon Halimov katta jamoat arbobi edi. Kichik farzandi Rahimjon Ibodov boshqa soha mutaxassisi bo'lsa ham musiqadan ancha xabardor kishi bo'lgan. Umuman xalq ardoqlagan hofiz Domla Halimning milliy madaniyatimiz taraqqiyoti, noyob musiqa merosi maqomlarni keyingi avlod vakillariga yetkazishdagi xizmati beqiyosdir. U umrining oxirigacha (1940-yilda vafot etgan) o'z xalqiga va o'zbek milliy san'atiga halol xizmat qildi. Uning xizmatlari hukumat tomonidan yuqori baholanib, unga O'zbekiston xalq hofizi unvoni berildi. Keyinchalik Buxoro shahrida 1-son musiqa maktabi va shahardagi ko'chalardan biriga uning nomi berilgan.

Xulosa. Yaqinda noyob iste'dod va katta mahorat egasi, o'zining dovudiy ovozi bilan Markaziy Osiyo va hatto uning tashqarisida ham shuhrat qozongan sevimli hofiz Domla Halim Ibodovning tavalludiga 143-yil to'ldi. Shuni aytmochimizki, zabardast hofizning xotirasini abadiylashtirish uchun faqat birgina maktab yoki birgina ko'chaga uning nomini berish bilan chegaralanib qolmasdan, tug'ulgan shahri Buxoroda Domla Halim uy muzeyini tashkil qilish, shuningdek, O'rta va Oliy san'at ilmgohlari talabalari orasida Domla Halim Ibodov nomli Respublika tanlovlarini o'tkazish va nihoyat uning maqom ijrochilik maktabini tiklash bilan hofiz ruhini shod etishimiz lozim. Chunki xalq uchun, xalq milliy merosi, xalqning tarixiy ma'naviy qadriyatlari uchun xizmat qilishga butun ongli hayotini bag'ishlagan ardoqli san'atkor har qanday tahsin va hurmatga loyiqdir.

Adabiyotlar

1. Shashmaqom saboqlari. / Maqola va ma'ruzalarning birinchi to'plami. – T., 2005. – 136 b.
2. Nurullayev F.G. Bolalarning musiqiy ta'limi// o'quv qo'llanma. –Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021-yil.
3. To'rayev F. Shashmaqomxon ustoz - Buxoro shashmaqomi: Tarixiy-nazariy va amaliy masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya. –Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2019-yil.
4. Shashmaqom saboqlari/ Maqola va ma'ruzalarning ikkinchi to'plami. – T., 2005. – 224 b.
5. Matyoqubov O. Maqomot. –Toshkent: “Musika” nashriyoti, 2004.